



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2024-yil
YANVAR-MART**

Nukus – 2024

SO‘Z BOSHI

Qoraqalpog‘iston Respublikasining statistik axborotnomasi – Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tormoqlari hamda shahar va tumanlar holatini kompleks tavsiflovchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Uchbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Evropa hamjamiyatning Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagich (IFUT-2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘ –kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarich sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘silgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya’ni, YaHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keng yoritilgan.

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	—	yalpi hududiy mahsulot	l.	—	Litr
%.	—	foiz	0,0	—	katta bo‘limgan miqdor
mlrd.	—	milliard	m.	—	Marta
mln.	—	million	—	—	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	—	million AQSH dollari	ga.	—	Gektar
kv.	—	kvadrat	tn.	—	Tonna
km.	—	kilometr	¹⁾ , ²⁾ , ³⁾	—	izohning mavjudligi
m.	—	metr			

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	6
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH	7-17
II. SANOAT	18-31
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	32-50
IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	51-73
V. XIZMATLAR	74-90
VI. TRANSPORT	91-101
VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI	102-112
VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	113-120
IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)	121-131
X. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	132-139
XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI	140-156
XII. O'RTACHA OYLIK ISH HAQI	157-170
XIII. DEMOGRAFIYA	171-183

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar
yanvar-mart oylarida


	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>2023-yil yanvar-martiga nisbatan, foiz hisobida</i>
	<i>2023 y.</i>	<i>2024 y.</i>	
Yalpi hududiy mahsulot	6 091,2	7 071,2	105,6
Sanoat mahsuloti	3 828,3	5 159,4	107,6
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 338,1	1 508,1	103,6
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	2 076,7	4 273,7	186,8
Qurilish ishlari	984,8	1 122,5	105,5
Yuk aylanmasi <i>(mln. tn-km)</i>	129,9	212,9	104,4
Yo‘lovchi aylanmasi <i>(mln. yo‘lovchi-km)</i>	945,9	988,1	100,8
Chakana tovar aylanmasi	2 083,5	2 388,5	106,5
Xizmatlar, jami	2 815,5	3 567,2	111,5
Tashqi savdo aylanmasi <i>(mln. AQSH doll.)</i>	123,7	138,8	112,2
Eksport	68,6	90,1	131,4
Import	55,2	48,7	88,4
Saldo (+;-)	13,4	-41,4	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 7 071,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qo‘shgan hissasi 2,9 % ga yetdi.



**2024-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

	Mlrd. so‘m		O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
I. YAHM, jami	6 091,2	7 071,2	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	5 402,0	6 767,6	105,6
mahsulotlarga sof soliqlar	689,2	303,6	106,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	5 402,0	6 767,6	105,6
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	782,1	881,6	103,5
sanoat (qurilishni qo‘silgan holda)	1 840,2	2 406,8	106,8
sanoat	1 418,3	1 932,3	107,6
qurilish	421,9	474,5	104,2
xizmatlar	2 779,7	3 479,2	105,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	387,9	468,1	110,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	480,2	619,9	104,9
boshqa xizmat tarmoqlari	1 911,6	2 391,2	104,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinish turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 525,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,2 % ga yuqoridir.

**2024-yilning yanvar-mart oylarida
aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)**



**2024-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

	2023-yil	2024-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	88,7	95,7
mahsulotlarga sof soliqlar	11,3	4,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	14,5	13,0
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	34,1	35,6
sanoat	26,3	28,6
qurilish	7,8	7,0
xizmatlar	51,4	51,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7,2	6,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,9	9,2
boshqa xizmat tarmoqlari	35,3	35,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi

(jamiga nisbatan % da)

2024-yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 13,0 % ni, sanoat tarmog'i 28,6 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 51,4 % ni tashkil qildi.

2023- yil




2024- yil



**2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM
o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**


YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – salbiy 3,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – salbiy 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,5 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 1,5 f.p.) ijobjiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAH 0,6 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – salbiy 0,1 f.p.)ga ko'paydi.




2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 13,0 %), sanoatda – 107,6 % (28,6 %), qurilishda – 104,2 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 105,4 % ni (51,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,5 % (6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,9 % (9,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,5 % dan (35,3 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 109,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'i – 126,6 % va xizmatlar sohasida – 118,8 % qayd etildi.



**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)**

2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 3 317,4 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-mart oylarida – 2 641,1 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 49,0 % ni (2023-yilning yanvar-mart oylarida – 48,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.



yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko’rsatkichidir;

yalpi ishlab chiqarish (YAICH) – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

oraliq iste’mol (OI) – muayyan davrda boshqa tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan (asosiy kapital iste’moli bundan mustasno) tovarlar va bozor xizmatlari qiymatidir;

yalpi qo’shilgan qiymat (YAQQ) – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar (ishlab chiqarish) qiymati va ishlab chiqarish jarayonida to’laligicha ishlatilgan tovarlar va xizmatlar (oraliq iste’mol) qiymati o’rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

yollanma ishchilar mehnatiga haq to’lash – hisobot davrida bajarilgan ish uchun yollanma ishchiga ish beruvchi tomonidan to’lanadigan pul yoki natura shaklidagi to’lovlar. Mehnatga haq to’lash, qonunchilikka muvofiq soliqlar va boshqa to’lovlarni chegirmagan holda hisoblangan summa asosida hisobga olinadi;

mahsulotlarga soliqlar – rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda tovar yoki xizmatning bir birligiga solinadigan soliqlardir. Ularga qo’shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va importga soliqlar va boshqalar kiradi;

ishlab chiqarishga boshqa soliqlar – korxona va tashkilotlarga ishlab chiqarishdagi ishtiropi natijasida solinadigan barcha soliq turlaridan (mahsulotlarga soliqlar bundan mustasno) iborat. Ular yer va tabiiy resurslar uchun, ishlab chiqarish jarayonida foydalilaniladigan ishlab chiqarish vositalari yoki ishchi kuchi uchun, shuningdek, ma’lum bir faoliyat turlari yoki operatsiyalar bilan shug‘ullanishga ruxsat olish va boshqalar uchun to’lanishi mumkin;

sof soliqlar – tegishli subsidiyalar chegirib tashlangan soliqlardir;

subsidiyalar – davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan norezidentlar tomonidan korxonalarga, ularning ishlab chiqarish faoliyati hajmidan yoki ular tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning qiymati yoki miqdoridan kelib chiqqan holda to’lanadigan beg‘araz to’lovlardir;

mahsulotlarga subsidiyalar – rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning miqdori va qiymatiga mutanosib tarzda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bir birligi uchun to’lanadigan subsidiyalardir;

ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar – korxonalar tomonidan ishlab chiqarish faoliyati natijasida olinadigan subsidiyalardir (ishlab chiqarish omillaridan foydalanish bilan bog'liq subsidiyalar, masalan ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, tabiiy resurslar va boshqalar), mahsulotlarga subsidiyalar bundan mustasno;

yalpi foyda va unga tenglashtirilgan daromadlar -yollanma ishchilarning mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarishga va importga soʻf soliqlar chegirilgandan keyin ishlab chiqaruvchi hisobida qo'shilgan qiymatning qoladigan qismini, shuningdek uy xo'jaliklarining aralash daromadlarini, ya'ni yakka tadbirkor yoki daromad oluvchining daromadidan ajratilmaydigan, bajarilgan ish uchun olingan to'lovlarini ifodalaydi;

asosiy kapital iste'moli hisobot davrida asosiy kapital qiymatining moddiy va ma'naviy eskirishi va tasodifiy zararlanishi natijasida kamayishini ifodalaydi;

bozor ishlab chiqarish iqtisodiy ahamiyatga ega narxlarda, ya'ni tovarlar va xizmatlar talab va taklifiga sezilarli ta'sir qiluvchi narxlarda sotiladigan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'z ichiga oladi;

nobozor ishlab chiqarish institutsional birliklar tomonidan o'zlarining yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarilgan, shuningdek, boshqa institutsional birliklarga bepul yoki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'limgan narxlarda taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'z ichiga oladi;

sotib olish narxi – sotib oluvchi tomonidan belgilangan vaqtida va joyga yetkazib berilgan tovar va xizmat birligi uchun to'lanadigan narx. U tovari yetkazib berish bo'yicha savdo-vositachilik va transport xarajatlarini, shuningdek, sotib oluvchi tomonidan to'lanadigan mahsulotlarga soliqlarni o'z ichiga olib, ammo mahsulotlarga subsidiyalarni va ajratilgan qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) o'z ichiga olmaydi;

YAHM fizik hajm indeksi – o'tgan yilning shu davr narxlari dagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o'tgan yilning shu davr amaldagi narxlari dagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

YAHM indeks-deflyatori – hudud iqtisodiyotida narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.

II. SANOAT

Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

(2024 yil yanvar-mart)

2024 yilning yanvar-mart oylarida 5 159,4 mldr. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlarin qayta ishlaydigan korxonalar hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 79,3 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mldr. so'm



B -	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,
C -	Ishlab chiqaradigan sanoat,
D -	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,
E -	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 6,6 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 39,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 11,0 % ga o'sishi kuzatildi. Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning 15,6 % ga kamayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Statistik hisob-kitoblar bo‘yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 905,3 mlrd. so‘m miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 17,5 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilga nisbatan 144,0 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirdorlar va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 396,2 mlrd. so‘m miqdorida (7,7 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 4091,9 mlrd. so‘m bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 79,3 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo‘yicha 963,6 mlrd. so‘m (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 18,7 %), suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo‘yicha 23,1 mlrd. so‘m (0,4 %) hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo‘yicha 80,8 mlrd. so‘m (1,6 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishning o‘sishiga elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash korxonalarini ham munosib hissa qo‘shti, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 18,7 foizni tashkil etdi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



**Yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarish
hajmi va o'sish sur'ati**



**2024 yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
sanoat mahsulotini ishlab chiqarish**

	<i>mldr. so‘m</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2023 y.</i>	<i>2024 y.</i>		<i>2023 y.</i>	<i>2024 y.</i>

Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

3 804,0	5 159,4	107,6	100,0	100,0
----------------	----------------	--------------	--------------	--------------

iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	33,0	80,8	139,7	0,9	1,6
---	-------------	-------------	--------------	------------	------------

ulardan:

Tog‘-kon sanoatining boshqa sohalari	23,4	64,0	135,8	0,6	1,3
--------------------------------------	------	------	-------	-----	-----

Yopiq usulda qazishga texnik yordam ko‘rsatish	9,6	16,8	156,2	0,3	0,3
--	-----	------	-------	-----	-----

Qayta ishlash sanoati	3 239,9	4 091,9	106,6	85,2	79,3
------------------------------	----------------	----------------	--------------	-------------	-------------

undan:

Oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	617,9	812,7	110,2	16,2	15,7
---	-------	-------	-------	------	------

To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	720,0	937,3	109,0	18,9	18,2
--	-------	-------	-------	------	------

Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	39,9	61,0	154,1	1,1	1,2
--	------	------	-------	-----	-----

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	3,0	0,8	30,8	0,1	0,02
---	-----	-----	------	-----	------

	mlrd. so'm		fizik hajm indeksi, %	davomi jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida	
	2023 y.	2024 y.		2023 y.	2024 y.
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	1 741,5	2 086,4	102,1	45,8	40,4
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	1,1	1,8	119,9	0,03	0,04
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	2,0	1,1	38,0	0,1	0,02
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	67,1	152,8	121,6	1,8	3,0
Metallurgiya sanoati	0,3	0,3	98,2	0,01	0,01
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	12,9	19,3	119,6	0,3	0,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	-	-	-	-	-
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	6,9	1,0	13,7	0,2	0,02
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	2,4	0,5	17,7	0,1	0,01
Mashina va uskunalar ta'mirlash va o'rnatish	1,1	0,5	66,3	0,03	0,01
boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	23,8	16,4	62,7	0,6	0,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	510,9	963,6	111,0	13,4	18,7
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	20,2	23,1	84,4	0,5	0,4

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan 2024 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 foizini tashkil etdi.


Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha Tabiiy gaz olish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,6 foizga, gaz kondensati 12,0 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan ulishi, foiz hisobida)**

2023 yil yanvar-mart



2024 yil yanvar-mart



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)**

o'Ichov birligi	yanvar-mart oylarida		2023 yilga nisbatan, % hisobida
	2023 y.	2024 y.	

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

Tabiiy gaz ishlab chiqarish	mln.m.kub	265,7	232,3	87,4
Ohak tosh	ming tn.	49,4	43,6	88,3
Chaqiq tosh	ming tn.	-	-	-

	o'Ichov birligi	yanvar-mart oylarida		2022 yilga nisbatan %, hisobida	davomi
		2023 y.	2024 y.		
Qayta ishlash sanoati					
Aroq mahsulotlari	<i>ming l. 100% spirit</i>	879,1	902,9	102,7	
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	18,4	10,4	56,5	
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	<i>tn.</i>	177,5	483,6	272,5	
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g. (buxanka)	<i>tn</i>	41,6	12,0	28,8	
Guruch mahsulotlari	<i>tn</i>	1 382,3	-	-	
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn.</i>	2 820,9	2 090,8	74,1	
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor omuxta yem mahsulotlari	<i>ming tn.</i>	2,8	0,2	5,7	
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	9,3	11,6	124,9	
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	14,3	16,5	114,9	
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	840,7	1 022,0	121,6	
Asosiy noorganik kimyoviy moddalar (dinatriy karbonati)	<i>ming tn.</i>	54,2	58,4	107,7	
Polietilen	<i>ming tn.</i>	64,3	70,4	109,5	
Polipropilen	<i>ming tn.</i>	19,2	21,9	114,2	
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash					
Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	1 387,1	1 572,2	113,3	
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	22,1	21,6	97,6	

	<i>o‘lchov birligi</i>	<i>yanvar- mart oylarida</i>		<i>2023 yilga nisbatan, % hisobida</i>	<i>davomi</i>
		<i>2023 y.</i>	<i>2024 y.</i>		


**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish**

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlari	<i>mln. so‘m</i>	14 972,9	16 872,9	112,7	
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	<i>mln. so‘m</i>	1 643,3	2 039,4	124,1	

2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 091,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 79,3 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,03 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali 50,3 foizni, o‘rta-quyi texnologiyali 5,0 foiz va quyi texnologiyali 44,7 foizni tashkil etdi.

**2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O'z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, portlandsement 5,1 martaga, makaron mahsulotlari 2,7 martaga, polipropilen 14,2 foizga, polietilen 9,5 foizga, aroq 2,7 foizga oshgan bo'lsa, bug'doy noni ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 71,2 foizga, yumshoq bug'doy va spelta uni 43,5 foizga, pishitilgan ip 28,6 foizga, tozalangan yog'lar va uning fraktsiyalari 25,9 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 963,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,7 foizni) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 foizi) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarining 12,7 foizga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 24,1 foizga oshganligi kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari (jamiga nisbatan ulishi)

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (jami ishlab chiqarish hajmining 41,1 %), Taxiatosh (18,6 %), Qo'ng'iroq (5,7 %), Amudaryo (4,8 %), To'rtko'l (4,3 %), Beruniy (3,6 %) va Xo'jayli (3,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (respublika bo'yicha jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida)




2024-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ko‘rsatkichlari

	<i>sanoat mahsulotlari, mld. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5 159,4	100,0
Nukus sh.	2 119,1	41,1
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	245,3	4,8
Beruniy	183,2	3,6
Bo‘zatov	10,3	0,2
Qonliko‘l	153,8	3,0
Qorao‘zak	139,0	2,7
Kegeyli	126,9	2,5
Qo‘ng‘irot	296,4	5,7
Mo‘ynoq	90,3	1,7
Nukus	30,0	0,6
Taxiatosh	960,9	18,6
Taxtako‘pir	64,1	1,2
To‘rtko‘l	224,4	4,3
Xo‘jayli	170,8	3,3
Chimboy	123,4	2,4
Shumanay	61,1	1,2
Ellikqal‘a	160,4	3,1

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

	<i>Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so'm</i>	
	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>o'sish sur'ati</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 572,3	106,2
Nukus sh.	6 234,9	100,8
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1 154,7	108,4
Beruniy	891,6	100,9
Bo'zatov	469,5	114,1
Qonliko'l	2 854,6	110,8
Qorao'zak	2 554,4	120,8
Kegeyli	1 693,5	106,4
Qo'ng'irot	2 177,3	103,1
Mo'ynoq	2 683,6	126,4
Nukus	554,4	107,6
Taxiatosh	12 503,0	112,0
Taxtako'pir	1 649,6	103,3
To'rtko'l	979,2	100,9
Xo'jayli	1 325,1	109,2
Chimboy	1 066,0	115,8
Shumanay	1 052,5	118,9
Ellikqal'a	936,3	102,7

2024-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan
 sanoat mahsulotlari hajmlari va o‘sish sur’ati
 ming so‘mda, % da



2024-yilning yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish

Tarmoqlar aro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida 109,7 mlrd. soʻmlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarining oʼsishi boʻyicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur boʻlgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni oʼsishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Mahalliylashtirish dasturining asosiy koʻrsatkichlari

	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	10	8
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	9	8
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.soʻm</i>	68,4	109,7
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	5,9	3,5
Yaratilgan yangi ish oʼrinlari, <i>birlik</i>	5	21

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 591,5 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qoʼshma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 50,2 foizni tashkil etdi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘lmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o‘zgarish indekslari – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir; Iste’mol mollari – asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘limgan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhash
Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliylashtirish darjasasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliylashtirish darjasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘limgan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.

III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2024-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 1 508,1 mlrd. so'mni yoki 2023 yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 1 358,0 mlrd. so'mni (103,6 %), o'rmon xo'jaligi 133,4 mlrd. so'mni (103,0 %), baliqchilik xo'jaligi 16,6 mlrd. so'mni (109,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining ulushi 3,3 % ni tashkil qildi.



**1 508,1
mlrd. so'm**

01



1 358,0

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu
sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

02



133,4

O'rmon xo'jaligi


03




16,6

Baliqchilik xo'jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati**




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy
hajmining taqsimlanishi (% da)**



2024-yilning yanvar–mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 90,1 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 8,8 % o‘rmon xo‘jaligi, 1,1 % baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**



2024-yilning yanvar-mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (241,6 mlrd. so‘m) va Beruniy (180,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo‘ynoq tumani (19,5 mlrd. so‘m) va Nukus shahrini (16,9 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (103,6 %) yuqori o‘sish sur’atlari Shumanay (110,5 %), Nukus sh. (108,9 %), Beruniy (106,5 %), Qo‘ng‘irot (106,4 %), Mo‘ynoq (105,7 %), To‘rtko‘l (105,2 %), Nukus (105,2 %) va Taxtako‘pir (104,1 %) tumanlarida kuzatildi, Bo‘zatov (101,2 %), Qonliko‘l (101,1 %), Ellikqal‘a (101,0 %), Taxiatosh (100,4 %) va Qorao‘zak (100,1 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024-yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 300,0 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 110,6 mlrd. so'mni (105,0 %), chorvachilik mahsulotlari 1 219,4 mlrd. so'mni (103,4 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (umumi hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yig'imi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 276 tonna sabzavot yetishtirildi.

2024-yilning yanvar-martida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagি dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda
Sabzavotlar	-	-	142	110,1	134	113,6




Dehqonchilik


2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 110,6 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,3 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar

Hajmi, tonna




O'sish sur'ati, % da



*Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi*


*Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,
% da*



2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 276 tonna sabzavotlar (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 11,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 51,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati




Chorvachilik

2024-yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1 219,4 mlrd. so‘nni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushti 91,7 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.


2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 16,9 ming tonna go‘sht (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 3,0 % ga ko‘p), 55,8 ming tonna sut (4,0 % ga ko‘p), 82,3 mln. dona tuxum (1,4 % ga ko‘p) va 850,2 tonna baliq (10,9 % ga ko‘p) ovlandi.




*Qishloq, o‘rmon va
baliqchilik xo‘jaligi*

Go‘sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O‘sish sur’ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 16,9 ming tonna go‘sht (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 3,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.

● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 55,8 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 4,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 87,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ishlab chiqarilgan sut yetishtirish hajmi, tonna




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Tuxum


Hajmi, mln.dona



O‘sish sur’ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Fermer xo‘jaliklari




Dehqon va tomorqa
xo‘jaliklari



Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, ming dona



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

Hajmi, tonna




Baliq

O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi % da




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 850,2 tonna (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 10,9 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 44,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,6 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiyligi sonidan 13,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiyligi sonidan 24,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 71,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 8,5 % i fermer xo‘jaliklariga, 80,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 11,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 213,6 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023-yilning 1-apreliga nisbatan 29,6 ming boshga (2,5 %) ko‘paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 93,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa
xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh




*Qishloq, o‘rmon va
baliqchilik xo‘jaligi*

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



*Bosh sonining xo'jalik toifalarini
bo'yicha taqsimlanishi, % da*




● Fermer xo'jaliklari ● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 352,9 ming boshga yetdi.
- sigirlarning bosh soni 2023-yilning 1-apreliga nisbatan 10,6 ming boshga (3,1 %) ko'paydi.
- sigirlar bosh sonining 91,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha sigirlarning bosh soni, ming bosh




*Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi*

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



O'sish sur'ati, % da



2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- qo'y va echkilarning umumiyligi bosh soni 1 231,0 ming boshga yetdi.
- qo'y va echkilarning bosh soni 2023-yilning 1-apreliga nisbatan 51,6 ming boshga (4,4 %) ko'paydi.
- qo'y va echkilalar bosh sonining 84,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha qo'y va echkilarning bosh soni, ming bosh




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Otlar


Soni, bosh



O’sish sur’ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



● Fermer xo‘jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- otlarning umumiy soni 27 809 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2023-yilning 1-apreliga nisbatan 1 754 boshga (6,7 %) ko‘paydi.
- otlar bosh sonining 71,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha otlarning bosh soni, bosh




Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 5 022,2 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2023-yilning 1-apreliga nisbatan 289,8 ming boshga (6,1 %) ko'paydi.
- parrandalar bosh sonining 80,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

● Fermer xo'jaliklari ● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari ● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha parrandalarning bosh soni, ming bosh



STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklari, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarini terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida asosiy va takroriy, bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraaga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdag'i chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdag'i qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘sghan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdag'i parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘sghan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2024-yilning yanvar-mart oylarida Respublikaning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 4 273,7 mld. so‘m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 186,8 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 3 190,9 mld. so‘mni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi


	<i>mldr. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>	<i>umumiylajmiy hajmga nisbatan % da</i>
--	-------------------	--------------------------	--

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	4 273,7	186,8	100,0
--	----------------	--------------	--------------

shu jumladan:

Markazlashgan investitsiyalar:	253,9	56,2	5,9
budjet mablag‘lari	101,3	41,5	2,4
Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	14,7	4,7 m.	0,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	0,1	34,3	-
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	137,8	67,6	3,2
Markazlashmagan investitsiyalar:	4 019,8	2,2 m.	94,1
korxonalarning o‘z mablag‘lari	473,0	80,9	11,1
aholi mablag‘lari	310,8	105,5	7,3
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	3 053,1	3,9 m.	71,4
tijorat bank kreditlari boshqa qarz mablag‘lari	182,9	102,3	4,3

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



Avtotransport vositalari – yo‘lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Yo‘lovchi avtomobili – o‘zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo‘lovchilar va bagajlarni tashishga mo‘ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta’minlangan avtomobil.

Yuk avtomobili – yuklarni tashishga mo‘ljallangan, qattiq ramali mexanik yo‘l transporti vositasi; yuk avtotransporti vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo‘linadi.

Avtobus, mikroavtobus – yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan va haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda sakkizdan ortiq o‘tirish o‘rindig‘iga ega bo‘lgan, qattiq ramali mexanik yo‘l transporti vositasi.

Yengil avtomobil – haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda, sig‘imi sakkiz kishigacha bo‘lgan yo‘lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo‘ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo‘shilmaydi.

Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi) – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og‘irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og‘irligi bo‘yicha aniqlanadi (tonnada o‘lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko‘rsatilgan yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og‘irligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘limgan hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi transportlarning barcha turlari uchun (avtotransportdan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo‘natish vaqtida ko‘rsatilgan.

Yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo‘natmasi og‘irligini uni tashish masofasiga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi.

Tashilgan yo‘lovchilar – ma’lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo‘lib yo‘lovchi-qatnovi hisoblanadi).

Yo‘lovchi aylanmasi – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo‘yicha alohida hisoblanadi.


VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma’lumotlar jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma’lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko‘rsatkichlarini shakillantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyl ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko‘rsatkichi shular jumlasidan.

2024-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 856 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 83 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 773 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvalar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar, chakana savdo ko‘rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko‘rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-mart oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 2 388,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 106,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 76,9 mird. so‘mni (o’sish sur’ati 80,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2311,6 mlrd. so‘mni (o’sish sur’ati 107,7 %), shundan uyushmagan savdo aylanmasi 330,2 mlrd. so‘mni (o’sish sur’ati 119,9 %) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o‘sish sur’atlari
(2024-yil yanvar-mart oylari)

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste’mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd.so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd.so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 388,5	106,5	76,9	80,1	2 311,6	107,7
Nukus sh.	501,5	108,0	19,7	100,0	481,9	108,4
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	205,4	106,4	4,1	98,9	201,3	106,6
Beruniy	148,3	107,4	7,6	74,8	140,7	110,0
Bo‘zatov	17,7	109,8	0,1	93,4	17,7	109,9
Qorao‘zak	106,0	104,9	0,3	87,6	105,7	105,0
Kegeyli	67,3	104,9	0,2	72,6	67,1	105,1
Qo‘ng‘irot	181,2	105,0	4,3	112,4	176,9	104,8
Qonliko‘l	83,5	105,1	0,0	41,9	83,4	105,2
Mo‘ynoq	25,2	104,0	0,1	81,1	25,1	104,1
Nukus	70,3	107,9	0,2	70,9	70,1	108,1
Taxiatosh	97,3	102,4	20,7	55,0	76,5	133,5
Taxtako‘pir	79,2	106,5	0,2	65,8	79,0	106,6
To‘rtko‘l	274,8	104,5	9,6	104,7	265,2	104,4
Xo‘jayli	210,0	106,8	3,3	94,1	206,7	107,0
Chimboy	126,8	111,4	2,7	103,1	124,1	111,6
Shumanay	50,7	106,3	0,2	110,7	50,5	106,3
Ellikqal‘a	143,3	107,0	3,6	100,0	139,7	107,2

2024-yilning yanvar-mart oylarida 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan respublikaning Chimboy (111,4 %), Bo‘zatov (109,8 %), Nukus (107,9 %) tumanlari va Nukus shahrida (108,0 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 2 311,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,7% ga o‘sdi. Respublika miqyosida ushbu sektoring jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,8 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur’atga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 80,1 % ni va 76,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,2 % ulushiga to‘g‘ri keldi.

**Aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi
hajmi va o‘sish sur’atlari**

2024-yilning yanvar-mart holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 190,8 ming. so‘mni (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 105,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida ma’lumot

	Hajmi ming. so‘m	O‘sish sur’atlari, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 190,8	105,1
Nukus sh.	1 475,5	106,4
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	966,4	104,6
Beruniy	721,9	105,3
Bo‘zatov	809,6	109,8
Qorao‘zak	1 947,8	104,3
Kegeyli	898,6	104,1
Qo‘ng‘iroq	1 331,5	103,9
Qonliko‘l	1 548,3	103,7
Mo‘ynoq	750,2	103,7
Nukus	1 301,4	105,9
Taxiatosh	1 266,4	101,7
Taxtako‘pir	2 035,7	106,5
To‘rtko‘l	1 199,1	102,6
Xo‘jayli	1 629,1	105,5
Chimboy	1 094,8	110,8
Shumanay	872,3	105,6
Ellikqal‘a	836,8	105,0

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako‘pir (2 035,7 ming. so‘m), Qorao‘zak (1 947,8 ming. so‘m) va Xo‘jayli (1 629,1 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mldr. so'm</i>	<i>2023-yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	2 388,5	106,5	100,0

shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:

davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	2 388,5	106,5	100,0
undan fuqarolarning hususiy mulki	1 045,6	107,2	43,8

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2024 yilning yanvar-martida 1 012,6 mldr. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirdorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-mart oylarida 1 375,9 mldr. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,0 foizga o'sdi.

2024-yilning yanvar-martida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mldr. so'm</i>	<i>2023-yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	2 388,5	106,5	100,0

shu jumladan:

savdo korxonalari	1 012,6	102,0	42,4
Yakka tartibdagi tadbirdorlik	1375,9	110,0	57,6
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	330,2	119,9	13,8

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

7,6 mlrd. so'm



Tuzlamalar

6,9 mlrd. so'm



Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yang'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

6,7 mlrd. so'm



Zirovarlar

5,0 mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

11,3 mlrd. so'm



Sut va sut
mahsulotlari

2024-yilning yanvar-mart oylarida

Respublikaning barcha hududlarida
jоylashgan dehqon bozorlarida qishloq
xo'jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy
shaxslarning tanlama kuzatuvi o'tkazildi.
Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi
hajmi 217,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.
Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan
qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga
(99,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

11,7 mlrd. so'm



Tuxum

12,1 mlrd. so'm



Tovuq go'shti

7,9 mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har hil
yem-hashaklar

15,4 mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari

99,2 mlrd. so'm




Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

Ichki savdo

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari

2024-yilning yanvar-mart oylarida Respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 112,5 mlrd. so‘mmi tashkil etdi. Bunda har hil yoshdagи qora mollar savdosi 90,7 mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar 19,3 mlrd. so‘mni, otlar 1,6 mlrd. so‘mni, parrandala 0,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to‘liq tarkibi quydagи ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topgan:



Ichki savdo ko‘rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon* va chorva
(parranda) bozorlarining asosiy ko‘rsatkichlari**
(2024-yil yanvar-mart oylari)


	Jami mlrd.so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd.so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd.so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	330,2	119,9	217,7	128,7	112,5	105,8
Nukus sh.	42,9	142,2	32,6	176,2	10,3	88,5
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	24,3	118,6	19,5	155,0	4,8	60,8
Beruniy	31,7	120,9	22,3	138,1	9,4	92,9
Bo‘zatov	6,1	118,5	5,5	175,0	0,6	32,9
Qorao‘zak	13,7	105,7	12,3	153,9	1,4	28,1
Kegeyli	15,5	103,5	9,1	99,6	6,4	109,7
Qo‘ng‘irot	18,7	108,3	10,3	96,6	8,4	125,9
Qonliko‘l	12,1	106,3	5,3	75,4	6,8	154,5
Mo‘ynoq	3,6	103,8	3,6	165,2	-	-
Nukus	16,7	115,5	6,0	66,9	10,8	192,2
Taxiatosh	14,6	337,4	7,9	292,5	6,7	390,5
Taxtako‘pir	16,6	115,3	8,7	98,4	7,9	141,6
To‘rtko‘l	47,5	101,6	25,0	87,0	22,5	124,5
Xo‘jayli	20,2	108,7	15,5	136,1	4,7	65,0
Chimboy	28,1	143,7	17,7	147,7	10,4	138,3
Shumanay	7,7	121,2	5,5	142,9	2,2	87,7
Ellikqal‘a	10,3	114,0	5,3	94,6	5,0	145,2

* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so‘mda**



Respublika bo‘yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 873,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 18,4 % ga o‘sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 685,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,2 %ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 78,4 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga ega yirik korxonalar Nukus shahrida (118,5 %) va Taxiatosh tumanida (62,0 %) kuzatildi.

**Ulgurji savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes
 subyektlarining hajmi va o‘sish sur’atlari**
 (2024-yil yanvar-mart oylari)

	Jami mlrd.so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd.so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd.so‘m	2023-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	873,6	118,4	188,4	234,9	685,2	104,2
Nukus sh.	349,4	101,4	4,4	118,5	345,0	101,2
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	18,6	96,8	-		18,6	96,8
Beruniy	52,2	98,1	-		52,2	104,0
Bo‘zatov	0,7	96,1	-		0,7	96,1
Qorao‘zak	7,8	98,0	-		7,8	98,0
Kegeyli	1,1	74,8	-		1,1	74,8
Qo‘ng‘irot	28,1	99,6	-		28,1	99,6
Qonliko‘l	148,5	1 407,2	138,4		10,1	95,3
Mo‘ynoq	23,6	103,7	-		23,6	103,7
Nukus	23,8	103,9	-		23,8	103,9
Taxiatosh	77,5	87,0	45,6	62,0	32,0	203,7
Taxtako‘pir	8,6	104,7	-		8,6	104,7
To‘rtko‘l	62,3	102,4	-		62,3	102,4
Xo‘jayli	23,2	104,7	-		23,2	104,7
Chimboy	22,4	102,5	-		22,4	102,5
Shumanay	0,9	104,8	-		0,9	104,8
Ellikqal‘a	24,9	106,7	-		24,9	106,7



Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste’mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya’ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste’mol sohasiga o’tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat’iynazar, aholiga iste’mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste’molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste’mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o‘zi ishlab chiqargan kulnariya mahsulotlarini (taom, kulnariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulnariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalari balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar qoldig‘i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko‘rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og‘irlilik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o‘rtasidagi nisbat, ya’ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o‘zining ishlab chiqarish-xo‘jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo‘yicha sotish.

Iste’mol tovarlari – yakuniy iste’molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste’moli uchun mo‘ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo‘yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishslash yoki sotish) yoki o‘zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – tovar muomalasi doirasida bo‘lgan tovarlar yoki ulgurji korxonalar balansida turgan va kelgusida sotishga mo‘ljallangan tovarlar qoldig‘i.


Tovar aylanmasining tovar tuzilishi – tovar aylanmasi tarkibi, umumiy savdoda nisbiy ko‘rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og‘irlilik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o‘rtasidagi nisbat.

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Respublikada bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-mart oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 138,8 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 112,2 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, ming. AQSH dollar)



Qoraqalpog'iston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-mart holatiga ko'ra, 44,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 23,7 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 20,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING

MDH DAVLATLARI

BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Rossiya
TSA – 24,0
Eksport – 12,5
Import – 11,5



Qozog'iston
TSA – 14,3
Eksport – 9,7
Import – 4,6



Qirg'iz Respublikasi
TSA – 2,7
Eksport – 0,9
Import – 1,8



Belarus
TSA – 2,6
Eksport – 0,0
Import – 2,6



Tojikiston
TSA – 0,3
Eksport – 0,3
Import – 0,0



Ukraina
TSA – 0,1
Eksport – 0,1
Import – 0,0



Turkmaniston
TSA – 0,5
Eksport – 0,1
Import – 0,4



Qoraqalpog'iston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya 24,0 mln, Qozog'iston 14,3 mln hamda Belarus 2,6 mln bilan qayd etildi.

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
TUMANLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2024-yil yanvar-mart)***



	Hajm Ming. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	138 835,0	112,2	100,0
Nukus shahri	78 434,7	117,8	56,5
tumanlar:			
Amudaryo	2 503,9	37,8	1,8
Beruniy	2 423,5	70,6	1,7
Bo'zatov	89,1	20,3	0,1
Qorao'zak	383,4	8,4	0,3
Kegeyli	3 861,5	297,7	2,8
Qo'ng'iroq	5 632,3	276,3	4,1
Qonliko'l	6 584,6	102,7	4,7
Mo'ynoq	10 349,6	146,1	7,5
Nukus	3 906,7	493,8	2,8
Taxiatosh	2 631,1	64,6	1,9
Taxtako'pir	873,8	499,1	0,6
To'rtko'l	8 251,3	80,8	5,9
Xo'jayli	2 878,0	141,7	2,1
Chimboy	3 969,2	132,3	2,9
Shumanay	988,6	141,6	0,7
Ellikqal'a	5 063,4	119,6	3,6

**Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarlari**

56,5 % **Nukus sh. - 78 434,7**

7,5 % **Mo'ynoq t. - 10 349,6**

5,9 % **To'rtko'l t. - 8 251,3**

**Eng quyi hajm,
ming AQSH dollarlari**

0,1 % **Bo'zatov t. - 89,1**

0,3 % **Qorao'zak t. - 383,4**

0,7 % **Shumanay t. - 988,6**


Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 56,5 % ulush bilan 78 434,7 ming. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'zatov tumani 0,1 % ulush bilan 89,1 ming. AQSH dollarini tashkil etdi.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyarlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan 90,1 mln. AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 131,4 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-mart, ulushi % da)



Qoraqalpog'iston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
TUMANLAR KESIMIDA EKSPORTI
(2024-yil yanvar-mart)***

	Hajm Ming. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	90 081,2	131,4	100,0
Nukus shahri	53 727,2	119,1	59,6
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1 966,3	44,9	2,2
Beruniy	1 767,8	83,0	2,0
Bo'zatov	89,1	34,2	0,1
Qorao'zak	345,6	94,4	0,4
Kegeyli	3 341,0	257,6	3,7
Qo'ng'iroq	1 227,3	212,9	1,4
Qonliko'l	6 034,9	102,7	6,7
Mo'ynoq	7 182,6	589,3	8,0
Nukus	2 891,9	501,0	3,2
Taxiatosh	822,5	147,9	0,9
Taxtako'pir	394,8	471,6	0,4
To'rtko'l	1 553,4	307,3	1,7
Xo'jayli	949,8	344,7	1,1
Chimboy	3 209,0	242,9	3,6
Shumanay	988,6	141,6	1,1
Ellikqal'a	3 579,2	107,7	4,0

**Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarlari**

59,6 % Nukus sh. - 53 727,2

8,0 % Mo'ynoq t. - 7 182,6

4,0 % Ellikqal'a t. - 3 579,2

**Eng quyi hajm,
ming AQSH dollarlari**

0,1 % Bo'zatovt. - 89,1

0,4 % Qorao'zakt. - 345,6

0,4 % Taxtako'pirt. - 394,8

Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 59,6 % bilan 53 727,2 ming. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'zatov tumani 0,1 % bilan 89,1 ming. AQSH dollarini tashkil etdi




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI

2024-yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 48,8 mln. AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 88,4 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (30,3 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,3 %), sanoat tovarlari (10,9 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, 48,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2,3 mln. AQSH dollariga yetdi.

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
TUMANLAR KESIMIDA IMPORTI
(2024-yil yanvar-mart)**

	Hajm Ming. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	48 753,8	88,4	100,0
Nukus shahri	24 707,6	115,0	50,7
tumanlar:			
Amudaryo	537,6	23,9	1,1
Beruniy	655,7	50,4	1,3
Bo'zatov	0,0	0,0	0,0
Qorao'zak	37,7	0,9	0,1
Kegeyli	520,5	-	1,1
Qo'ng'iroq	4 405,0	301,3	9,0
Qonliko'l	549,7	102,7	1,1
Mo'ynoq	3 167,0	54,0	6,5
Nukus	1 014,9	474,2	2,1
Taxiatosh	1 808,7	51,4	3,7
Taxtako'pir	479,0	524,4	1,0
To'rtko'l	6 697,9	69,0	13,7
Xo'jayli	1 928,2	109,8	4,0
Chimboy	760,2	45,3	1,6
Shumanay	-	-	-
Ellikqal'a	1 484,1	163,3	3,0

**Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarlari**



**Eng quyi hajm,
ming AQSH dollarlari**



Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 50,7 % bilan 24 707,6 ming. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qorao'zak tumanı 0,1 % bilan 37,7 ming. AQSH dollarini tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Tovar – har qanday ko'chma multk, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlataladigan transport vositalari, shu jumldan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual multk obyektlari.

Tovarlar eksporti – agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Reeksport – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

Tovarlar importi – tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Reimport – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko'rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat – tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat "Bojxona tarifi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili – yuklab jo'natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati – shartnomalar valyutasidan qat'i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnomalar bo'yicha tovarlar qiymati.

SIF (qiymat, sug'ortalash, fraxt) – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'ortalash hamda import qiluvchi mamlakat portigacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

SIP (fraxt/tashish va sug'ortalash) – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'ortalash hamda import qiluvchi mamlakatning chegarasidagi belgilangan joygacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

FOB (bortda erkin) – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni kema bortigacha yetkazib berish va yuklash xarajatlari kiritiladi.

DAF (cheagaragacha yetkazib berish) – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni belgilangan joygacha yoki eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi joygacha yoxud qo'shni mamlakat chegarasigacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

Xizmatlar (ishlar) eksporti — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi — norezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismiga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)


Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 21,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 mingtaga kupaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,1 birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-martida 931 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51,7 % ga kamaygan.

2020-2024-yillar 1-aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o 'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



- **2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar kesimida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari.**



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 1301,5 mlrd. so'mni (25,2 foiz faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 270 tani tashkil etdi);



1 435,4 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 95,2 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 014 tani tashkil etdi;



1 567,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 36,7 foizi) 2023-yilning yanvar-martriga nisbatan 221,5 foizni tashkil etdi;



1 013,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 90,3 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 778 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,0 foizga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 88,2 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 0,9 foizga (umumiyo'lovchi aylanmasining 96,5 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 967 tani tashkil etdi);






- chakana tovar aylanmasi umumiyo'lovchi aylanmasining 96,8 foizi yoki 2 311,6 mlrd. so'm, xizmatlar umumiyo'lovchi aylanmasining mos ravishda 52,8 foizi yoki 1 883,4 mlrd. so'mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 5 727 ta



28,3 mln. AQSh dollarari (umumiyo'lovchi aylanmasining 31,5 foizi) 32,4 mln. AQSh dollarari (umumiyo'lovchi aylanmasining 66,5 foizidagi) quradi .

2024-yilning yanvar-mart oylarida respublika yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 49,0 foizni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga (48,9) nisbatan foizni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy
ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)
Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda



Ulushi, % da




■ 2022-y ■ 2023-y ■ 2024-y


■ 2022-y ■ 2023-y ■ 2024-y

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati


Hajmi, mlrd. so'mda



Ulushi, % da



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*




2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat

yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 13,1 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 0,7 birlikka kupaygan.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Nukus tumanida 21,7 birlik, Mo'ynoq 20,2 birlik, Bo'zatov 18,0 birlik, Qorao'zak 17,9 birlik, Qonliko'1 16,7 birlik, Nukus shahrida 16,1 birlik, Taxtako'pir 15,9 birlik, Kegeyli 13,0 birlik, Shumanay 12,5 birlik, To'rtko'1 12,4 birlik, Ellikqal'a 12,4 birlik, Qo'ng'irot 11,4 birlik, Beruniy 11,4 birlik, Chimboy 11,2 birlik, Xo'jayli 10,3 birlik, Amudaryo 10,3 birlik, va Taxiatosh 9,4 birlikka yetdi.

2024 yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiylajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 435,4	95,2
Sanoat	1 301,5	25,2
Qurilish	1 013,5	90,3
Chakana savdo	2 311,6	96,8
Yuk tashish, <i>mln tn.</i>	7,9	92,6
Yo‘lovchi tashish, <i>mln.kishi</i>	31,5	93,7
Eksport, <i>mln. AQSh doll.</i>	28,3	31,5
Import, <i>mln. AQSh doll.</i>	32,4	66,5

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiylajmidagi kichik
tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi
(umumiylajmaga nisbatan foiz hisobida)**




2024-yil yanvar-mart oylarida 28 788 ta kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (25 687 ta) 112,0 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning savdo (33,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (15,2 %), sanoat (16,2 %), qurilish (9,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,4 %), tashish va saqlash (4,3 %) hamda axborot va aloqa (2,2 %) va sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,7 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

2024-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, % da




2024-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2024-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi

Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Beruniy (181,3 mlrd. so'm), Xo'jayli (161,3 mlrd. so'm), Nukus shahri (128,6 mlrd. so'm), Amudaryo (108,9 mlrd. so'm), To'rtko'l (105,8 mlrd. so'm), Ellikqal'a (98,2 mlrd. so'm), Qonliko'l (89,2 mlrd. so'm), Mo'ynoq (66,9 mlrd. so'm); tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Bo'zatov tumanida (10,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2024-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va oʼsish surʼatlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Nukus shahri (481,8 mlrd. soʻm), Toʻrtkoʻl (265,1 mlrd. soʻm) va Xoʻjayli (206,7 mlrd. soʻm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2024 yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmatlar sohasida hajmi va o‘sish sur’atlari



Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Bo‘zatov tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Beruniy ulushi (98,9 %), Xo‘jayli ulushi (94,5 %), Shumanay ulushi (92,3 %), tumanlariga va eng past ulushi Taxiatosh tumani (2,2 %) to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo‘yicha jami xizmat ko‘rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Xo‘jayli (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (74,4 %), Taxtako‘pir (72,8 %), Qorao‘zak (70,6 %), Nukus tumani (69,1 %), Kegeyli (69,1 %), Mo‘ynoq (68,6 %), To‘rtko‘l (68,4 %), Shumanay (68,3 %), Taxiatosh (66,1 %), Chimboy (65,6 %), Ellikqal‘a (64,9 %), tumanlariga to‘g‘ri keldi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari (tadbirkorlik sub’ektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Chakana savdo bu – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat.

Ulgurji savdo bu – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o‘z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Kichik va o‘rta biznes – mustaqil mulk egaligiga, xo‘jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o‘z tarmog‘ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes sub’yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo‘lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko‘rsatkichlardan foydalilanildi. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes subyektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.

**X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY
NATIJALARI**

Foyda. Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra 2024 yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 761,8 mlrd. so‘m miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi. 2023 yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 223,7 mlrd. so‘mga kamaygan va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,3 foizni tashkil qildi.

2024 yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (+,-), mlrd. so‘m</i>	<i>2023 yilning yanvar-fevraliga nisbatan % da</i>
Jami	761,8	77,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	0,2	2,0 m.
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash		
Ishlab chiqaradigan sanoat	692,3	70,9
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	0,4	266,4 m.
Suv bilan ta’minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	-2,1	-
Qurilish	0,6	108,0
Savdo	2,7	9,3 m.
Tashish va saqlash	66,8	5,9
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	0,8	122,2
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	0,1	2,7 m.

2024 yilning yanvar-fevral oylarini, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘sishi “O‘zkimyosanoat” AJ (15,9 mlrd. so‘m), “O‘zbekneftegaz” AJ (2,4 mlrd. so‘m), “O‘zbekiston temir yo’llari” AJ (66,8 mlrd. so‘m) ga to‘g‘ri keladi. Foydaning pasayishi “O‘zpaxtasanoat” AJ (19,0 mlrd. so‘m) hisobiga to‘g‘ri keldi.

2024 yilning yanvar-fevral oylari yakunlari bo‘yicha yirik tijorat korxonalarining foydasi 784,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 79,1 % tashkil etadi.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Nukus shahriga 695,2 mlrd. so‘m (jami foydaning 88,6 %), Taxiatoш ga 3,5 mlrd. so‘m (0,4 %), Qo‘ng‘irotda 83,0 mlrd. so‘m (10,6 %) va Chimboy 0,7 mlrd. so‘mdan (0,1 %) to‘g‘ri keladi.


Shuningdek, Shumanay tumanida yirik tijorat korxonalari mayjud emasligi sababli, ushbu tuman bo‘yicha foyda (zarar) miqdori keltirilmagan.

**2024 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida
yakuniy moliyaviy natijalarini**

	<i>Foyda, zarar (+-), mlrd. so‘m</i>	<i>2023 yilning yanvar-fevraliga nisbatan % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	761,8	77,3
Nukus sh.	694,9	73,8
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	0,6	28,0
Beruniy	-	-
Bozatov	-	-
Qorao‘zak	-16,7	-
Kegeyli	0,1	-
Qo‘ng‘irot	83,0	196,0
Qonliko‘l	-0,1	-
Mo‘ynoq	-	-
Nukus	-	-
Taxiatoш	3,5	4,6 m.
Taxtako‘pir	-1,9	-
To‘rtko‘l	0,8	100,7
Xo‘jayli	-	-
Chimboy	0,7	2,2 m.
Ellikqal‘a	-3,1	-

Zararlar. 2024 yilning yanvar-fevral oylarida 8 ta korxona va tashkilotlar tomonidan 22956,3 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘yilgan. Zararning asosiy qismi, “Dori darmon“ AJ 240,2 mln. so‘m, Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik subyektlari 22523,4 mln. so‘m O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi 168,4 mln. so‘m “O‘zdonmahsulot” AJ 24,3 mln. so‘m hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**2024 yilning yanvar-fevralida zarar ko‘rgan
korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan % da)**




2024 yil yanvar-fevral oylarida 8 ta korxona o‘z faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo‘lib, ko‘rilgan zararning umumiyo miqdori 22 956,3 mln. so‘mni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p zarar miqdori Suv bilan ta’minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish 2112,6 mln. so‘m (korxonalar soni 1 ta, 9,2 foiz), Ulgurji va chakana savdo 240,2 mln. so‘m (korxonalar soni 1 ta, 1,1 foiz), Ishlab chiqaradigan sanoat 20435,1 (korxonalar soni 5 ta, 89,0 foiz), Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash 168,4 mln. so‘m (zarar ko‘rgan korxonalar soni 1 ta, Respublika bo‘yicha jami zarar miqdorining 0,7 foizi) hissalariga to‘g‘ri keldi.

2024 yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxona-lar soni</i>	<i>Zarar so'mmasi</i>	
		<i>mln. so'm</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
Jami	8	22956,3	100,0
Savdo	1	240,2	1,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	5	20435,1	89,0
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	1	2112,6	9,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1	168,4	0,7

**2024 yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan % da)**



Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

**2024 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida
zarar kurgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko‘rgan korxonalarining ulushi, % da</i>	<i>Zarar so‘mmasi, mln. so‘m</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8	100,0	22956,3
Nukus sh.	2	1,8	408,6
Taxtako‘pir	1	9,2	2112,6
Taxiatosh	1	0,1	24,3
Qonliko‘l	1	0,5	126,8
Kegeyli	1	0,7	154,2
Qorao‘zak	1	72,7	16687,4
Ellikqal‘a	1	15,0	3442,4

Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorlik holati¹

2024 yilning 1- mart holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 2 899,4 mlrd. so‘mmi tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan 21,0 mlrd. so‘m yoki jami qarzdorlikning 0,7 foizini tashkil etgan. Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2023 yilning 1 martiga nisbatan 122,8 % ni tashkil etib, 3,9 mlrd. so‘mga ko‘paygan.

2024 yil 1 mart holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)

<i>Debitor qarzdorlik jami</i>	<i>%</i>
“O‘zpaxtasanoat” AJ	0,3
“O‘zdonmahsulot” AJ	2,3
“O‘zkimyosanoat” AJ	0,6
“O‘zavtosanoat” AJ	0,1
“O‘zbekneftegaz” AJ	1,8
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	4,6
Boshqalar	90,3

¹⁾Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

2024 yil 1- mart holatiga jami debitor qarzdorliklar hajmi 2 899,4 mlrd. so'mni tashkil etdi, debitor qarzdorliklarning asosiy qismini "O'zpaxtasanoat" AJ 7,7 mlrd. so'm (0,3 foiz), "O'zdonmahsulot" AJ 66,2 mlrd. so'm (2,3 foiz), "O'zkimyosanoat" AJ 17,3 mlrd. so'm (0,6 foiz), "O'zbekneftegaz" AJ 52,6 mlrd. so'm (1,8 foiz), "O'zbekiston temir yo'llari" AJ 134,2 mlrd. so'm (4,6 foiz), O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'ssatish vazirligi 0,8 mlrd. so'm (0,03 foiz) "O'zavtosanoat" AJ 2,2 mlrd. so'm (0,1 foiz) hamda boshqalar 2 618,4 mlrd. so'm (90,3 foiz) hissalariga to'g'ri keldi.

**2024 yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mlrd. so'm</i>	<i>shundan:</i>			<i>Muddati o'tgan qarzdor- likning ulushi, % da</i>
		<i>xaridor va buyurtma- chilar</i>	<i>yetkazib beruvchilarga va pudratchi- larga berilgan avanslar</i>	<i>ichki idora- viy</i>	
Jami	21,0	21,0	-	-	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	20,0	20,0	-	-	95,2
Tashish va saqlash	0,9	0,9	-	-	4,3
Qurilish	0,1	0,1	-	-	0,5

**2024 yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mlrd. so'm</i>	<i>shundan:</i>			<i>Muddati o'tgan qarzdor- likning ulushi, % da</i>
		<i>yetkazib beruvchilar va pudratchi- larga</i>	<i>mehnatga haq to'lovlar bo'yicha qarz</i>	<i>Byudjetga davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz</i>	
Jami	32,1	20,7	11,4	-	100,0
Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishslash	12,7	1,3	11,4	-	39,6
Ishlab chiqaradigan sanoat	17,9	17,9	-	-	55,8
Tashish va saqlash	1,5	1,5	-	-	4,6



Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

**2024 yilning 1- mart holatiga vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligi
(jamiga nisbatan % da)**

<i>Kreditor qarzdorlik, jami</i>	<i>%</i>
“O‘zpaxtasanoat” AJ;	0,1
“O‘zdonmahsulot” AJ	1,4
“O‘zkimyosanoat” AJ;	0,4
“O‘zbekneftegaz” AJ	0,6
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	1,8
Boshqalar	95,7

2024 yilning 1- mart holatiga jami kreditor qarzdorliklar hajmi 3 857,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi, kreditor qarzdorliklarning asosiy qismi “O‘zpaxtasanoat” AJ 2,7 mlrd. so‘m (0,1 %), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 68,3 mlrd. so‘m (1,8 %), “O‘zdonmahsulot” AJ 54,1 mlrd. so‘m (1,4 %), “O‘zkimyosanoat” AJ 16,3 mlrd. so‘m (0,4 %), “O‘zbekneftegaz” AJ 22,6 mlrd. so‘m (0,6 %), O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi 0,5 mlrd. so‘m (0,01 %) hamda boshqalar 3 692,9 mlrd. so‘m (95,7 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar) – korxona va tashkilotlarning barcha xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig'indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan umumiy foyda (zarari)ni ifodalaydi.

Debitorlik qarzlar – xaridorlar va buyurtmachilar, shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, budget va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlar, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlarini o'z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlar – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budgetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urta bo'yicha qarz, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischilarga qarzlar, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar va boshqa kreditorlik qarzlarini o'z ichiga oladi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo'shimcha qiymat solig'i hamda aksiz solig'ini qo'shgan holda.

Muddati o'tgan qarzlar – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so'ndirilmagan qarzning umumiy summasi.

Aksiya – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Obligatsiya – emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda utilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

Uzoq muddatli pullar – iqtisodiyot va moliya sohasida uzoq muddatli (bir yildan ortiq) qarzlar (investitsiyalar) yoki uzoq muddatli kreditlarni tavsiflash uchun ishlataladigan iborat.


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA’RIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minalash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi.

Jumladan, 2024-yil 1-aprel holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 25 147 mingtani tashkil etib, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 21 275 mingtani tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda***




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni
(*tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha*
2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(*iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda*)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar


(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 2024-yil yanvar-mart oylarida)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Shunda, 2024-yil yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni – 2023-yilning mos davriga nisbatan axborot va aloqada 54 tadan 70 taga (o‘sish 16 taga) ko‘paydi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida


Amudaryo	372
To'rtko'l	317
Nukus	327
Beruniy	269
Kegeyli	167
Qo'ng'irot	173
Qonliko'l	165
Ellikqal'a	164
Chimboy	178
Xo'jayli	142
Nukus sh.	127
Mo'ynoq	128
Qorao'zak	121
Bo'zotov	118
Shumanay	104
Taxiatosh	94
Taxtako'pir	108



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura



**O'rmonchilik va yog'och
tayyorlash**

**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**


**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiyligi ta'rif**

Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

Sanoat yo'nalişida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tumanlar kesimida

Nukus sh	628
Amudaryo	343
Beruniy	255
Bo'zotov	44
Qorao'zak	158
Kegeyli	98
Qo'ng'irot	240
Qonliko'l	79
Mo'ynoq	125
Nukus	94
Taxiatosh	122
Taxtako'pir	105
To'rtko'l	321
Xo'jayli	190
Chimboy	156
Shumanay	59
Ellikqal'a	284



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 102,5 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 13,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 98,3 foiz); 4,8 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 103,3 foiz); 2,6 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 123,2 foiz) va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 92,6 foiz) tashki etgan.



**Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va
tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**
2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida


Nukus sh	782
Amudaryo	80
Beruniy	88
Bo'zotov	18
Qorao'zak	46
Kegeyli	46
Qo'ng'irot	83
Qonliko'l	33
Mo'ynoq	33
Nukus	82
Taxiatosh	56
Taxtako'pir	19
To'rko'l	152
Xo'jayli	99
Chimboy	49
Shumanay	25
Ellikqal'a	117




O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'naliishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'naliishi 16,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'naliishi 28,3 foiz ulushni va 103,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.
- binolar va inshootlar qurish yo'naliishi 55,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,6 foizni tashkil etgan;

289 Fuqarolik obyektlarini qurish



512 Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




1 007 Bino va inshootlar qurish

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiyl ta'rifi

**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024 yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**

Tumanlar kesimida

Nukus sh	2 034
Amudaryo	645
Beruniy	692
Bo'zotov	53
Qorao'zak	149
Kegeyli	197
Qo'ng'irot	409
Qonliko'l	179
Mo'ynoq	177
Nukus	165
Taxiatosh	252
Taxtako'pir	103
To'rtko'l	908
Xo'jayli	419
Chimboy	363
Shumanay	177
Ellikqal'a	571



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 493 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 64,8 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 110,8 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 24,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 120,0 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 122,5 foizni tashkil etdi.



Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida

Nukus sh	194
Amudaryo	38
Beruniy	35
Bo‘zotov	1
Qorao‘zak	5
Kegeyli	14
Qo‘ng‘irot	34
Qonliko‘l	5
Mo‘ynoq	5
Nukus	14
Taxiatosh	17
Taxtako‘pir	7
To‘rtko‘l	33
Xo‘jayli	31
Chimboy	17
Shumanay	4
Ellikqal‘a	35



Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning – 489 ta yoki 84,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

94,3 foiz korxonalar sog‘lijni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,8 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 88,2 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,6 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 100,0 foizni tashkil etdi;



**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)**

Tumanlar kesimida

Nukus sh	383
Amudaryo	155
Beruniy	100
Bo‘zotov	13
Qorao‘zak	36
Kegeyli	42
Qo‘ng‘irot	115
Qonliko‘l	31
Mo‘ynoq	35
Nukus	20
Taxiatosh	29
Taxtako‘pir	15
To‘rtko‘l	129
Xo‘jayli	57
Chimboy	50
Shumanay	21
Ellikqal‘a	111



2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 116,1 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,9 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 93,1 foiz ulushini tashkil etdi.

93

Yashash bo‘yicha xizmatlar



1 249


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Yillar kesimida



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'lijni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Tumanlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (25,7 foiz), To'rtko'l (10,9 foiz), Beruniy (8,2 foiz), Amudaryo (8,5 foiz) va Ellikqal'a (7,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar
(2024 yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**

Yillar kesimida soni


145,6 %

149,0 %

117,1 %

100,2 %

108,0 %



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixтиiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra 2023-yilning mos davriga nisbatan 158 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	305	Nukus	60
Amudaryo	295	Taxiatosh	86
Beruniy	161	Taxtako'pir	64
Bo'zotov	10	To'rtko'l	501
Qorao'zak	23	Xo'jayli	115
Kegayli	22	Chimboy	17
Qo'ng'irot	105	Shumanay	26
Qonliko'l	114	Ellikqal'a	200
Mo'ynoq	30		

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar
 to‘g‘risida ma’lumot
 2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Mas’uliyati cheklangan jamiyati - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlar qo‘sghan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 21 350 tijorat korxona va tashkilotlarining 16 574 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	4 642	Nukus	696
Amudaryo	1 388	Taxiatosh	436
Beruniy	1 343	Taxtako‘pir	277
Bo‘zotov	291	To‘rtko‘l	1 597
Qorao‘zak	537	Xo‘jayli	889
Kegayli	582	Chimboy	816
Qo‘ng‘irot	976	Shumanay	306
Qonliko‘l	331	Ellikqal’a	959
Mo‘ynoq	508		

**Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar
2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda**

Yillar kesimida soni



Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,6 foizni tashkil etdi.


Tumanlar kesimida

Nukus sh.	499	Nukus	31
Amudaryo	109	Taxiatosh	110
Beruniy	198	Taxtako'pir	65
Bo'zotov	8	To'rtko'l	198
Qorao'zak	45	Xo'jayli	91
Kegayli	49	Chimboy	84
Qo'ng'iroq	186	Shumanay	105
Qonliko'l	83	Ellikqal'a	334
Mo'ynoq	46		

Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi
 korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot
 2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra,

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 160 dan 173 taga yoki 108,1 foizga oshgan.

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	39	Nukus	8
Amudaryo	4	Taxiatosh	7
Beruniy	5	Taxtako‘pir	4
Bo‘zotov	7	To‘rtko‘l	11
Qorao‘zak	8	Xo‘jayli	8
Kegayli	8	Chimboy	3
Qo‘ng‘irot	15	Shumanay	2
Qonliko‘l	7	Ellikqal‘a	4
Mo‘ynoq	33		

**Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot**
2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

chet el korxonalar

qo'shma korxonalar



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 80 tasi qo'shma korxonalar, 93 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Xitoy Xalq Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Qozog'iston Respublikasi



Turkiya Respublikasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
 faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
 (2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

<i>chet el korxonalar</i>		<i>qo'shma korxonalar</i>
23	Nukus sh.	16
17	Mo'ynoq	16
7	Qo'ng'irot	8
4	Qonliko'l	3
6	Nukus	2
3	Qorao'zak	5
3	Kegeyli	5
6	Taxiatosh	1
5	To'rtko'l	6
3	Beruniy	2
1	Bo'zotov	6
4	Xo'jayli	4
2	Amudaryo	2
3	Taxtako'pir	1
1	Chimboy	2
2	Shumanay	-
3	Ellikqal'a	1



Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024-yilning yanvar-mart oylari holatiga)**

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 065,4 ming. so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlар, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlар kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlар ham mavjud.


2024-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nukus shahrida 5 332,9 ming.so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 131,2 foiz), Qo‘ng‘irot tumanida 4 559,9 ming.so‘m (112,2 foiz) va Taxiatosh tumanida 4 223,9 ming. so‘m (103,9 foiz) ni tashkil etgan.

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida
hisoblangan daromad**

*(2024-yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalarini hamda
kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari)*

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Respublika bo‘yicha jami	160 794	1 920,2	4 065,4
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	11 872	201,9	5669,6
Qurilish	3 311	38,3	3859,0
Savdo	674	8,3	4115,0
Tashish va saqlash	8 989	136,0	5042,2
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	71	0,8	3669,6
Axborot va aloqa	1 105	20,8	6280,3
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	3 329	100,1	10023,6
Ta’lim	78 653	764,8	3241,2
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	26 382	283,1	3577,0
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 820	26,5	3126,7
Boshqa faoliyat turlari	23 588	339,6	4799,1


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik ish haqi, *ming so‘m*



2024-yil yanvar-mart oyalarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng baland ko‘rsatkichi – bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish darajasi 106,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, savdo sohasida 136,6 %, sanoat sohasi 119,0 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 117,9 %, ta’lim sohasida 117,5 %, axborot va aloqa sohasi 113,8 %, qurilish sohasida 111,5 % hamda tashish va saqlash sohasida 107,5 % ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



26 230,6

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



6 075,7

Ishlab chiqarish sanoati



2 628,3

Suv bilan ta’milash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish va
utilizatsiya qilish




7 544,5

Elektr, gaz, bug‘
bilan ta’milash va
havoni konditsiyalash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog‘i (26 230,6 ming so‘m), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’milash va havoni konditsiyalash (7 544,5 ming so‘m) hamda ishlab chiqarish sanoati (6 075,7 ming so‘m)da kuzatildi.

Hududlar kesimida



ming so‘m
o’sish sur’ati


O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (10 685,3 ming so‘m), Taxiatosh tumani (7 145,9 ming so‘m) hamda Qo‘ng‘iroq tumanlarida (5 289,9 ming so‘m) kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Qurilish sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Hududlar kesimida




Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Qo'ng'irot tumani (5 165,5 ming soʻm), Taxiatosh tumani (4 070,3 ming soʻm) hamda Ellikqal'a tumanida (3 910,4 ming soʻm)da qayd etildi.

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming soʻm



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Savdo sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming soʻm



4 526,1

Avtomobil va
mototsikllarning
savdosidan tashqari
ulgurji savdo



7 085,6

Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji va
chakana savdosi va ularni
taʼmirlash



1 534,6

Avtomobil va
mototsikllarning savdosidan tashqari
chakana savdo

Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni taʼmirlash (7 085,6 ming. soʻm)da, eng past ko‘rsatkich esa avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo (1 534,6 ming. soʻm)da kuzatildi.

Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Savdo sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Taxiatosh tumanida (4 526,1 ming so'm) qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Nukus shahrida (2 703,2 ming so'm) kuzatildi.

Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

**Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo‘yicha
o‘rtacha oylik ish haqi**



5 182,1 ming. so‘m

Omchor xo‘jaligi va yordamchi
transport faoliyati



5 205,0 ming. so‘m

Quruqlikdagi va quvur
transporti




2 222,8 ming. so‘m

Pochta va kuryerlik faoliyati




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi quruqlikdagi va quvur transporti faoliyatida (5 205,0 ming.so‘m)da, eng past ko‘rsatkich esa pochta va kuryerlik faoliyati (2 222,8 ming.so‘m)da kuzatildi.

Hududlar kesimida




**O‘rtacha oylik ish haqining yillar
kesimidagi dinamikasi, ming so‘m**




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qo‘ng‘iroq tumani (6 447,5 ming so‘m)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur’ati Qo‘ng‘iroq tumanida (114,1%) va Nukus shahrida (102,5 %) qayd etildi.

Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi




Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi




Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi aloqa sohasi (7 871,1 ming.so'm)da, eng past ko'rsatkich esa noshirlik faoliyati (2 434,3 ming.so'm)da kuzatildi.

Hududlar kesimida




O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, min.so ‘m



Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (6 434,6 ming so‘m) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur’ati Qorao‘zak tumani (2,2 barobarga), Nukus tumanida (198,3 %) hamda Shumanay (178,2 %) tumanlarida qayd etildi.

■ ming so‘m ● o‘sish sur’ati

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining
asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi**



8 009,8 ming so'm

Majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati



10 089,7 ming so'm

Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar



4 955,7 ming so'm

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar (10 089,7 ming so'm)da eng past ko'rsatkichi esa moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyati (4 955,7 ming so'm) da kuzatildi.

Hududlar kesimida



ming so'm

o'sish sur'ati


**O'rtacha oylik ish haqining
yillar kesimidagi dinamikasi,**



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (10 799,4 ming so'm) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Beruniy (133,8 %), Nukus (128,6 %) hamda Shumanay (124,7 %) tumanlarida qayd etildi.

**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Ta’lim sohasida o‘rtacha oylik ish haqi




Ta’lim sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi



Ta’lim sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi oliy taʼlim (6 434,8 ming.soʻm) da, eng past ko‘rsatkich esa maktabgacha taʼlim (1 900,5 ming.soʻm) da kuzatildi.

Ta'lif sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi



Hududlar kesimida

Nukus shahri	4 366,2	116,7%
Xo'jayli	3 435,7	116,3%
Qonliko'l	3 416,7	133,9%
Kegeyli	3 345,9	121,0%
Ellikqal'a	3 154,5	113,4%
To'rtko'l	3 053,5	116,9%
Chimboy	2 934,2	109,7%
Qo'ng'irot	2 866,1	114,6%
Beruniy	2 844,2	117,4%
Taxiatosh	2 800,2	112,5%
Shumanay	2 790,1	122,9%
Mo'ynoq	2 746,8	124,6%
Nukus tumani	2 719,0	117,7%
Taxtako'pir	2 645,7	124,9%
Amudaryo	2 643,5	117,9%
Bo'zatov	2 624,9	117,2%
Qorao'zak	2 599,0	122,2%

■ ming so'm ■ o'sish sur'ati


O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming. so'm



Ta'lif sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (4 366,2 ming. so'm), Xo'jayli tumani (3 435,7 ming. so'm) hamda Qonliko'l tumanlari (3 416,7 ming. so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qonliko'l (133,9 %), Taxtako'pir (124,9 %), Mo'ynoq (124,6 %), hamda Shumanay (122,9 %) tumanlarida qayd etildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

**Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida
o‘rtacha oylik ish haqi**



Hududlar kesimida

Qonliko‘l	4 304,3	122,2%
Chimboy	4 081,2	115,4%
Taxtako‘pir	3 922,0	146,2%
Xo‘jayli	3 866,0	124,4%
Mo‘ynoq	3 863,0	134,2%
Nukus shahri	3 824,7	115,8%
Nukus tumani	3 624,3	115,8%
Qo‘ng‘iroq	3 523,2	121,6%
Kegeyli	3 496,4	121,3%
Beruniy	3 472,8	114,8%
Taxiatosh	3 353,6	114,0%
Bo‘zatov	3 335,2	123,7%
Shumanay	3 314,2	121,3%
Ellikqal‘a	3 281,5	117,2%
Qorao‘zak	3 266,6	108,3%
To‘rtko‘l	3 078,5	109,1%
Amudaryo	2 852,9	117,8%

Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining faoliyati turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qonliko‘l tumani (4 304,3 ming so‘m), Chimboy tumani (4 081,2 ming so‘m), Taxtako‘pir (3 922,0 ming so‘m) hamda Xo‘jayli (3 866,0 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur’ati Taxtako‘pir (146,2 %), Mo‘ynoq (134,2 %) hamda Xo‘jayli tumanlarida (124,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**O‘rtacha oylik ish haqining yillar
kesimidagi dinamikasi, ming. so‘m**



■ ming so‘m ■ o‘sish sur’ati

**O‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**



Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'ruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqalojni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqtি- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqtি davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqtি deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darjasini vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-aprel holatiga 2 008,8 ming kishini tashkil etib, 2024-yil boshidan 6,1 ming kishiga ya'ni 0,3 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 981,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,8 %), qishloq aholisi soni 1 027,6 ming kishini (51,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2024 yil yanvar-mart oylarida

- Aholi soni **6,1 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **9,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **2,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **3,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **0,5 ming nafarni** tashkil etdi

2024-yilning Yanvar-mart oylarida



9,5 ming kishi

Tug'ilganlar soni

Yil boshida
Doimiy aholi soni
2 002 675 kishi
(2024-yil 1-yanvar holatiga)



2,3 ming kishi

O'lganlar soni



2,6 ming kishi

Ko'chib kelganlar soni



3,7 ming kishi

Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni

2 008 781 kishi

(2024-yilning 1-aprel holatiga)



***Qoraqalpog‘iston Respublikasi
ijtimoiy iqtisodiy holati***

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2024-yilning 1-aprel holatiga, ming kishi)**

	<i>Jami aholi</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 008,8	981,2	1 027,6
Nukus sh.	340,6	340,6	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	212,9	54,7	158,2
Beruniy	205,9	72,6	133,3
Bo‘zatov	21,9	5,6	16,3
Qonliko‘l	53,9	13,7	40,2
Qorao‘zak	54,4	16,4	38,0
Kegeyli	75,0	30,4	44,6
Qo‘ng‘irot	136,3	86,1	50,2
Mo‘ynoq	33,7	15,0	18,7
Nukus	54,2	10,9	43,3
Taxiatosh	76,9	54,8	22,1
Taxtako‘pir	38,9	16,8	22,1
To‘rtko‘l	229,5	85,8	143,7
Xo‘jayli	129,1	82,2	46,9
Chimboy	115,9	59,4	56,5
Shumanay	58,1	15,2	42,9
Ellikqal‘a	171,6	21,0	150,6

¹⁾dastlabki ma'lumot

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni
(1-aprel holatiga ming kishi)**


	2023 y.	2024 y.	O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 981,7	2 008,8	101,4
Nukus sh.	335,4	340,6	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	209,3	212,9	101,7
Beruniy	202,0	205,9	101,9
Bo‘zatov	21,9	21,9	100,0
Qorao‘zak	54,2	54,4	100,4
Kegeyli	74,3	75,0	100,9
Qo‘ng‘irot	134,9	136,3	101,0
Qonliko‘l	53,3	53,9	101,1
Mo‘ynoq	33,5	33,7	100,6
Nukus	53,1	54,2	102,1
Taxiatosh	76,4	76,9	100,7
Taxtako‘pir	38,9	38,9	100,0
To‘rtko‘l	225,6	229,5	101,7
Xo‘jayli	127,6	129,1	101,2
Chimboy	115,1	115,9	100,7
Shumanay	57,7	58,1	100,7
Ellikqal‘a	168,5	171,6	101,8

Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2023 y.</i>	<i>2024 y.¹⁾</i>	<i>o’sish, kamayish</i>	<i>2023 y.</i>	<i>2024 y.²⁾</i>
Tug‘ilganlar	9 777	9 483	-294	20,0	19,0
O‘lganlar	2 348	2 260	-88	4,8	4,5
Tabiiy o‘sish	7 429	7 223	-206	15,2	14,5
Nikohlar	3 652	3 790	138	7,5	7,6
Ajralishlar	566	462	-104	1,2	0,9

Tug‘ilish darajasi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 9 483 kishini tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (9 777 kishi) nisbatan 294 kishiga yoki 3,0 foizga kamaydi. Tug‘ilish koefitsienti mos ravishda 19,0 promilleni tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (20,0 promille) nisbatan 1,0 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy harakati koefitsientlari
(yanvar-mart oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining kamayishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Ellikqal‘ada 24,0 dan 18,6 promillega, Bo‘zatovda 17,3 dan 13,2 promillega, Nukus tumanida 25,0 dan 22,0 promillega va Mo‘ynoqda 17,8 dan 15,7 promillega kamayishi kuzatilgan.


¹⁾ dastlabki ma’lumot
²⁾ dastlabki ma’lumot

Tug'ilish. 2024-yilning yanvar-mart oylarida 9,5 mingta kishi tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan) mosravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 19,0 promilleni tashkil etdi hamda 2023-yilning mos davriga (20,0 promille) nisbatan 1,0 promillega kamayishi kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti (2024-yilning yanvar-mart oylarida)




O'lim darajasi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida o'lganlar soni 2 260 kishini tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (2 348 kishi) nisbatan 88 kishiga yoki 3,7 foizga kamaydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil qildi (2023 yilning yanvar-mart oylarida 4,8 promille).

**2024-yilning yanvar-mart oylarida asosiy o'lim sabablari bo'yicha
vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)**



O'lim koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Taxtako'pirda (13,5 dan 5,2 promillega), Nukus tumanida (6,5 dan 3,8 promillega), Qorao'zakda (7,8 dan 5,3 promillega) va Chimboyda (7,1 dan 5,8 promillega) kamayishi kuzatilgan.

Nikoh. 2024-yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 3,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,6 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2024-yilning yanvar-mart oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2024-yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

(2024-yilning yanvar-mart oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2024-yilning yanvar-mart oylari FHDYo organlarida 3 790 ta nikohlar va 462 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 7,6 ta nikoh (2023-yilning tegishli davrida 7,5 ta) va 0,9 ta ajralishlar (2023-yilning tegishli davrida 1,2 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlilik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	2023 y.	2024 y. ²⁾	2023 y.	2024 y. ²⁾
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 652	3 790	566	462
Nukus sh.	506	746	117	85
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	464	441	45	35
Beruniy	424	468	62	43
Bo'zatov	23	38	7	3
Qonliko'l	78	82	17	10
Qorao'zak	93	83	21	14
Kegeyli	129	133	19	17
Qo'ng'irot	249	220	49	43
Mo'ynoq	42	44	8	5
Nukus	121	109	16	13
Taxiatsosh	109	134	20	8
Taxtako'pir	78	60	11	9
To'rtko'l	492	423	41	56
Xo'jayli	211	208	46	36
Chimboy	197	164	34	35
Shumanay	80	76	14	18
Ellikqal'a	356	361	39	32

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilning yanvar-mart oylarida Respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2 565 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 3 682 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)




2024-yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig'i minus 1 117 kishiga (2023-yilning shu davrida minus 1 935 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chimboy (minus 201), Taxiatosh (minus 129) va Amudaryo (minus 121) tumanlarida kuzatilgan.


yanvar-mart oylarida

Soni, ming kishi

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ Shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo'shgan holda
²⁾ dastlabki ma'lumot

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

	Jami ko'chib kelganlar (kishi)	shundan:		Jami ko'chib ketganlar (kishi)	shundan:	
		Respublika- ning boshqa hududlaridan	Xorijiy mamla- katlardan		Respublika- ning boshqa hududlariga	Xorijiy mamla- katlarga
Nukus sh.	951	947	4	773	545	228

tumanlar:

Amudaryo	107	107	-	228	189	39
Beruniy	74	74	-	131	84	47
Bo'zatov	30	30	-	103	77	26
Qorao'zak	65	65	-	174	142	32
Kegeyli	94	92	2	203	166	37
Qo'ng'iroq	123	118	5	239	115	124
Qonliko'l	76	75	1	136	119	17
Mo'ynoq	40	37	3	125	82	43
Nukus	258	252	6	202	160	42
Taxiatosh	100	99	1	229	128	101
Taxtako'pir	40	35	5	115	62	53
To'rtko'l	120	120	-	146	132	14
Xo'jayli	200	192	8	278	149	129
Chimboy	110	110	-	311	242	69
Shumanay	66	63	3	138	118	20
Ellikqal'a	111	111	-	151	126	25



Poytaxtdagi demografik holat



Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2024-yil 1 aprel holatiga 340,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 1,4 ming kishiga yoki 0,4 % ga o‘sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan promille)



2024-yilning yanvar-mart oylarida 1,6 ming kishi tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 19,3 promilleni tashkil etdi (2023-yilning mos davrida 19,2 promille bo‘lgan).


FXDYo organlarida 2024 yilning yanvar-mart oylarida 746 ta nikoh va 85 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,8 promilleni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,7 promillega ko‘paygan (2023-yilning mos davrida 6,1 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,0 promilleni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi. 2023-yilning mos davrida 1,4 promille bo‘lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-mart holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)





Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıladı.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilda jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilda jami o'lganlar sonini hisobot yildagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilda tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilda nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlar iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Izoh